

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI ZAMONAVIY KASBLARGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH

**Abduqodirova Ozoda A'zam qizi**

Toshkent viloyati pedagogik mahorat  
markazi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarni zamonaviy kasblarga qiziqishlarini shakllantirishning dolzarbligi, maqsadi, yo'llari, natijalari aks ettirilgan.

**Tayanch so'zlar:** kasblar, texnologiya, ekskursiya, ta'lim, qobiliyat, qiziqish, ilm-fan.

**Annotatsiya:** в статье отражены актуальность, цель, пути и результаты формирования интереса детей старшего дошкольного возраста к современным профессиям.

**Ключевые слова:** профессии, технология, экскурсия, образование, способности, интерес, наука.

**Annotation:** the article highlights the relevance, purpose, methods, and outcomes of developing interest in modern professions among older preschool children.

**Keywords:** professions, technology, excursion, education, ability, interest, science.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilgi parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" [1] deb, bu borada "o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga" ahamiyat qaratishimiz kerakligi alohida ta'kidlab o'tildi. Shunga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar dunyosi bilan, ayniqsa, zamonaviy kasblar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli zamonaviy kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Kasb – bu insonning mehnat faoliyati; doimiy mashg'ulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan, bilim, mahorat, tajribani talab etadi. [2] Kasb – inson zarur bo'lgan, bo'sh vaqtida shug'ullanadigan, vatani uchun xizmat qiladigan ishdir. Hayotda kasblar shunchalik ko'pli, olimlarning ta'kidlashicha dunyoda 40 mingdan ortiq kasblar mavjud. [3]

Inson hamma biror kasbni egallashi uchun o'qishi va ta'lim olishi lozim. Kasbga qiziqishni biz eng avvalo yoshlikdan bolalarda ayniqsa, maktabgacha bo'lgan davrda shakllantirishimiz lozim. Buning uchun biz bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli zamonaviy kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni biz odatda quyidagi kasblar bilan doim tanishtirib kelganmiz: o't o'chiruvchi, oshpaz, tikuvchi, o'qituvchi, tarbiyachi, askar, shifokor, hamshira, uchuvchi, kosmonavt, quruvchi, haydovchi, sartarosh, sotuvchi, rassom, novvoy.

Ammo bugun ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari jadal rivojlanmoqda hamda shunga yarasha yangidan yangi kasblar vujudga kelmoqda. Shunga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni zamonaviy yangi kasblar bilan tanishtirishni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritish lozim.

The Balance Careers jurnalining ish qidirish bo'yicha mutaxassisi hamda CareerToolBelt.com asoschisi Alison Doyl bolalar eng ko'p orzu qiladigan 15 ta kasblarni sanab o'tgan.[4] Ya'ni bular quyidagilar:

1. Raqqos
2. Aktyor
3. Musiqachi
4. O'qituvchi
5. Kashfiyotchi olim
6. professional atletchi
7. Qutqaruvchi
8. Detektiv
9. Yozuvchi
10. Politsiya ofitseri
11. Astronavt
12. Uchuvchi
13. Veterinar
14. Advokat
15. Shifokor

Bundan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni biz quyidagi zamonaviy kasblar bilan tanishtirishimiz maqsadga muvofiq: dasturchi, dizayner, arxitektor, tarjimon, jurnalist, reportyor, aloqa operatori, menejer, styuardessa, kompozitor, fotograf, kashfiyotchi olim, milliy gvardiya, arxeolog, volontyor, advokat, sport ustasi, tadbirkor, marketolog.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga zamonaviy kasblar bilan tanishtirishning asosiy maqsad, vazifalari:

- zamonaviy kasblar haqida aniq bilim va tushunchalar berish;
- zamonaviy kasblarga nisbatan qiziqish va xohishini uyg'otish;
- zamonaviy kasblarning jamiyat hayotida ahamiyatini bola ongiga singdirish;
- kattalar va o'z mehnatini qadrlash va hurmat qilishni tarbiyalash
- bolalari zamonaviy kasblarga qiziqishini shakllantirish orqali kelajakda mamlakat rivojiga

hissa qo'shadigan yosh avlodni tarbiyalash.

MTTda bolalarni kasblar bilan tanishtirish har xil tashkiliy yo'llar va metodlar orqali amalga oshiriladi.

Birinchi yo'l — ekskursiya, mashg'ulot, maqsadli sayrlar orqali. Bunda kuzatish, kino va diafilm, diapozitiv, teleeshittirish, badiiy adabiyot, ko'rgan va eshitgani to'g'risida suhbat, tarbiyachi va bolalarning hikoyalari, tarbiyachining hikoya va tushuntirishi, didaktik o'yinlar kabi turli-tuman metodlardan foydalaniladi.

Ikkinchi yo'l — mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda. Bunda gigiyenik va pedagogik jihatdan mumkin bo'lgan ishlarni (binoni tozalash, idish yuvish, yuvilgan kirlarni dazmollash va taxlash, bayram kiyimlarini tikish, bolalar bilan o'yin, mashg'ulot uchun kerakli materiallarni tayyorlash va boshqalar) bolalar oldida bajarish, kuzatish, ko'rsatib tushuntirish, suhbat, tarbiyachining so'zlab berishi va shunga o'xshash materiallardan foydalaniladi. Kuzatishdan keyin bolalar bilan shunga o'xshash mehnat turlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi: kutubxonaga borib kelgandan keyin yirtilgan kitoblarni yamash, modalar atelyesiga borib kelgandan keyin qo'g'irchoqqa kiyim tikish va hokazolar.

Uchinchi yo'l — bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari. Bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari har xil bo'lishi mumkin (xona o'simliklarini yuvish, polizda ko'chat yoki urug'larni ekish uchun jo'yaklar tayyorlash, binoning ichini tozalash va h.k.)

Xususan, bu borada T. A. Markova va V. G. Nechayevalar ekskursiyaga katta ahamiyat berganlar. Ular ekskursiyani maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g'oyalarini shakllantirishning eng yaxshi usuli deb hisoblashgan. Kozlova esa bolalarning kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda vizual usullarning rolini ta'kidladi: illyustratsiyalarni ko'rish, filmlar ko'rsatish, namuna ko'rsatish. U maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g'oyalarini kengaytirishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qildi. [5]

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar dunyosi haqidagi g'oyalarini shakllantirish bo'yicha ishlar umumiy didaktik tamoyillarga asoslanadi:

- qulaylik (bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda; materialni yoshga moslashtirish);
- tizimli va izchil (materialni oddiydan murakkabgacha doimiy yetkazib berish; o'rganilgan qoidalar va me'yorlarni tez-tez takrorlash);
- ko'rinish (fikrlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda);
- dinamizm (har xil turdagi faoliyatga integratsiyalashuv);
- farqlash (yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda).
- me'yor va qoidalarni o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratish.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishda tarbiyachi har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularni shu kasbga yo'naltirishlari lozim. Bolalarning kelajakda qanday inson bo'lishlari va qaysi kasbni egallashlari aynan maktabgacha yosh davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bizning maqsadimiz ham yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu sababdan, maktabgacha yosh davridan bolalarni kasb tanlashga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, bolalarni erta kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi bolaning kasbiy dunyosiga hissiy munosabatini rivojlantirish, turli faoliyat va kasblarda o'zlarining kuchli va qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini berishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirishning vazifalari bolalarni kasblar bilan tanishtirish, yosh xususiyatlariga muvofiq mehnatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, mehnat faoliyatining ayrim sohalarida mehnatga qiziqish va elementar mehnat ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilgi parlamentga yo'llagan Murojaatnomasidan. 2022-yil
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika" Darslik. Toshkent. 2019-yil
3. Koroleva, M.V. Formirovaniye u starshix doshkolnikov predstavleniy o mire sovremennykh professiy / M.V. Koroleva. Tekst: neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. 2015. № 7 (87)
4. Valiyeva F.R. Ensuring continuity in the training of future professionals in the education system.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences/ Volume 7 Number 6, 2019. ISSN 2056-5852
5. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining menejerlik ko'nikmasini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar// Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'» № 1/1 Nökis — 2025 B 360-368